




**Senatoriallar soni
qisqarmoqda**

4-betda o'qing ➤



**Tabaqalashtirilgan ta'lim
samara berishi mumkin**

7-betda o'qing ➤

INSON va qonun

2023-YIL
11-APREL
SESHANBA

№ 14 (1374)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

**"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!**



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/) facebook.com/hudud24official/

AYOLLAR

muammolarini yoritishda

huquqiy, professional va
axloqiy me'yorlar

ADLIYA VAZIRLIGI hamda
"Mintaqaviy muloqot"
xalqaro nodavlat
notijorat tashkilotining
O'zbekistondagi filiali bilan
hamkorlikda hududlarda
faoliyat yuritayotgan
ommaviy axborot vositalari
vakillari, blogerlar va
vazirlik tizimidagi huquqiy
targ'ibotni amalga
oshiruvchi xodimlar uchun
tashkil etilgan trening
"Ayollar muammolarini
yoritishning huquqiy,
professional va axloqiy
me'yori" mavzusiga
bag'ishlandi.

Davomi 8-betda ➤



2 JARAYON

SAMARQAND viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Yoshlar ishlari agentligining Samarqand viloyat boshqarmasi va Bulung'ur tuman hokimligi bilan hamkorlikda Bulung'ur tuman 1-son kasb-hunar maktabida tashkil etilgan "Konstitutsiya – kelajagimiz kafolati" shiori ostidagi huquqiy aksiya o'tkazildi.



"KONSTITUSIYA – KELAJAGIMIZ KAFOLATI"

Tadbirda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada oshirish, aholiga, jumladan yoshlarga to'laonli huquqiy axborot yetkazish, mamlakatimizda kechayotgan konstitutsiyaviy islohotlar va bo'lajak referendumning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatiga oid targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi. Huquqiy aksiya doirasida tuman adliya bo'limi, xususan, FHDYo xodimlari, notarius, advokatlar, "Madad" nodavlat-notijorat tashkiloti tomonidan aholiga bepul huquqiy maslahatlar berilib, tuman davlat xizmatlari markazi tomonidan sayyor davlat xizmatlari ko'rsatildi. Konstitutsiyaviy islohotlar bo'yicha tashkil etilgan turli viktorina va tanlovlar, musobaqalar, badiiy chiqishlar esa tadbirga o'zgacha shukuh bag'ishladi.

Eng asosiysi huquqiy aksiya davomida 130 nafardan ortiq fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatildi. Tuman aholisi va yoshlar mavzu doirasida o'zlarini qiziqtirgan savollar va taklif-mulohazalar yuzasidan mutaxassislar bilan ochiq muloqotda bo'lishdi.

Ta'kidlash lozimki, mazkur aksiyada yoshlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi loyihasi yuzasidan "Konstitutsiya bilimdoni" viktorinasi, "Zakovat" intellektual o'yini, shaxmat-shashka musobaqalari, insholar tanlovi va boshqa huquqiy bellashuvlar tashkil etildi. Tashrif buyuruvchilar Konstitutsiya loyihasida aks etgan fuqarolarning shaxsiy, mulkiy, turar joy daxlsizligi, ta'lim olish, mehnat qilish va boshqa huquqlari, shuningdek sud-huquq, davlat hokimiyatining tashkil etilishi bilan bog'liq yangiliklar bilan ko'rgazmali tarzda tanishish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Huquqiy viktorinalarda faol qatnashganlarga boshqarmaning esdalik sovg'alari topshirildi. Mazkur yo'nalishdagi tadbirlar davom etmoqda.

**Samarqand viloyat adliya boshqarmasi
axborot xizmati**

Gender tenglik hamda ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi barcha davlatlarda muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Bu esa mamlakat barqarorligi va farovonligining muhim kafolati sanaladi. Shu bois, so'nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan ayni masala davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.


Konstitutsiyamizda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda belgilangan xalqaro me'yorlar, xususan, gender tenglik qoidalari aks etgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanishi haqidagi normalarning belgilanishi gender tengligining konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlanganligidan dalolat beradi.

E'tiborlisi, xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya, Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. Parlamentlararo ittifoq bu boradagi islohotlar natijasida O'zbekiston parlamentdagi ayollar ishtiroki bo'yicha 128 o'rindan 45 o'ringa ko'tarilganini tasdiqladi. Bu esa AQSh, Kanada va Avstraliyadan yuqori ko'rsatkichdir.

Shuningdek, xotin-qizlar ulushi boshqaruv lavozimlarida 33 foizga, partiyalarda 47 foiz, ta'lim sohasida 74 foiz, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida 46 foiz, tadbirkorlikda 37 foizga yetdi. Natijada mamlakatimiz 2020-yilda Jahon bankining ayollar, biznes va qonun indeksida xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi.

Ammo bu bilan ayollarning, opa-singillarimizning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtiroki hali yetarli darajada deya olmaymiz. Xususan, davlat va jamiyat boshqaruviga oid dolzarb masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishda hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ishlarga jalb qilishda xotin-qizlarning ishtiroki erkaklar bilan teng darajada ta'minlanmasdan, ular chetda qolib ketmoqda. Qolaversa, xotin-qizlarning davlat hokimiyati va boshqaruvdagi faoliyati to'g'risida jamiyatdagi salbiy qarashlar ularning siyosiy jarayon-

YANGI tahrirdagi Konstitutsiyada davlat tomonidan xotin-qizlar va erkaklarga davlat hamda jamiyat boshqaruvida, shuningdek, boshqa jabhalarda teng huquq va imkoniyatlar ta'minlanishi belgilab qo'yilmoqda. Zero, BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish ta'kidlaganidek, qayerdagi siyosiy va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar faol ishtirok etayotgan bo'lsa, o'sha joyda iqtisodiyot o'smoqda, barqarorlik mustahkamlanmoqda va fuqarolarning farovonligi yuksalmoqda.



YANGI TAHRIRDAGI QOMUSDA

gender tenglik masalasi



larda o'z g'oyalarini ilgari surishiga to'sqinlik qilmoqda. Aksariyat hollarda xotin-qizlarga iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmagan va sarf to'lanmaydigan uy xo'jaligi ishlari yuklatilmoqda. Hatto Jahon Iqtisodiy forumi (The Global Gender Gap) o'tkazgan tadqiqot natijalariga qaraganda, xotin-qizlar bir yilda erkaklarga nisbatan qariyb 35 kundan ko'proq ishlarni bajarishda 35-36 foiz ko'p vaqt sarflashini ko'rsatgan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida keskin tafovutlar kuzatilib, maktab o'qituvchilarining 70 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etmoqda. Ta'limning pedagogika va guman-

itar fanlar – filologiya, pedagogika, psixologiya, madaniyat va san'at yo'nalishlarida tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushi 68 foizni tashkil etsa, muhandis-texnik – axborot texnologiyalari, energetika, injeneriya va huquqshunoslik sohalarida ularning ulushi hamon kamligicha (24 foiz) qolmoqda. Bevosita oilaviy munosabatlarda ayollarning o'rne qay darajada? Bu borada fikr bildirishdan avval ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlar tahliliga nazar tashlasak, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayollar huquqlari tan olinmay, ularning huquqlari doimiy ravishda buzilib kelinayotgani oydinlashadi.

Asosiy qonunimizning 58-moddasida "Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlari boshqarishda, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlaydi" deb belgilanishi xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokida, o'z bilim va salohiyatini namoyon etishida muhim kafolat bo'lib xizmat qiladi, albatta.

Kamila OLIMOVA,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy
markazi bo'lim boshlig'i



OTALIKNI BELGILASH TARTIBI QANDAY?

– Ikkinchi turmushim bilan oila qurmasdan, ya'ni qonuniy nikohdan o'tmasdan yashadik, o'zini bolamning otasidan deb olgan edi. Lekin avtohalokatda vafot etdi. Qanday qilib farzandimga otalikni belgilatsam bo'ladi?

– Oila kodeksining 62-moddasiga asosan bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda uning otalik fakti sud tomonidan belgilanadi.



BANKDAN YAQIN QARINDOSHIMNING MA'LUMOTLARINI OLISHIM MUMKINMI?

– Vafot etgan yaqin qarindoshimning tijorat bankidagi omonatlari, pul o'tkazmalari to'g'risida bankdan ma'lumotlarini olishim mumkinmi?

– Mijoz to'g'risidagi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, uning merosxo'rlari yoki huquqiy vorislarga, agar ularning o'zi yoki ular vakolat bergan vakillar qonun hujjatlari muvofiq meros huquqini yoki huquqiy vorislikni tasdiqlovchi zarur hujjatlarni taqdim etsalar, bank tomonidan taqdim etiladi.

Meros huquqini yoki huquqiy vorislikni tasdiqlamaydigan hujjatlar olingan taqdirda, bank murojaat qilgan shaxsni u so'ragan ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyati yo'qligi xususida 3 ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart, shuningdek qo'shimcha hujjatlar taqdim etishni talab qilishga yoki murojaat etgan shaxsning meros huquqini yoxud huquqiy vorisligini tasdiqlab berish to'g'risidagi yozma so'rovni tegishli notariusga yoki yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga yuborishga haqli.

Meros huquqini yoki huquqiy vorislikni tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan taqdirda,

bank murojaat etgan shaxsga 5 ish kuni ichida tegishli mijoz to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni berishi mumkin.



IMTIYOZ BORMI?

– 15 yillik ish stajiga egaman. Uch nafar farzandim bor. Yaqinda ishxonamizga yangi boshliq keldi. Yangicha tartibda ishlay boshladik. Kadrlar bo'limida ish soatimizda imtiyoz berilmasligini aytishdi.

Aslida 3 yoshga to'lmagan bolasi bor budjet tashkilotlarida ishlaydigan ayollarning haftasiga ish soati qancha?

– 3 yoshga to'lmagan bolalari bor, budjet hisobidagi muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga ish vaqtining haftasiga 35 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilangan. Shunga ko'ra, bema'lol ish joyingizda qonunchiligimizda aniq belgilangan mazkur tartibga amal qilishingiz mumkin.



FOYDALANILMAGAN TA'TILDAN FOYDALANSAM BO'LADIMI?

– Uzoq yillardan beri davlat tashkilotida ishlayman. Yaqinda ishdan bo'shadim. Lekin 2015–2019-yillarda mehnat ta'tiliga chiqmaganman. Foydalanilmagan ta'tillarni olish tartibi qanday?

– Amaldagi Mehnat kodeksining 151-moddasiga ko'ra, mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga foydalanilmagan barcha yillik asosiy va qo'shimcha ta'tillar uchun pullik kompensatsiya to'lanadi. Shunga asosan 2015–2019-yillar mobaynidagi ish davrida foydalanilmagan mehnat ta'tillaringiz uchun sizga pullik kompensatsiya to'lanishi kerak.



Savollarga "Madad" NNT
bosh mutaxassisi
Abror EZOXONOV
javob berdi

ULUSH IKKIGA BO'LINADIMI?

– O'rtamizda farzand yo'q, ajrashmoqchiman. Turmush o'rtog'imning nomida to'ygacha otasi sovg'a qilgan mashina, to'ydan keyin olingan 2 xonali uy bor. Nikohimiz bekor qilinsa, men barcha mulklardan o'zimga tegishlisini olishim mumkinmi?

– Oila kodeksining 25-moddasiga ko'ra, er va xotinning nikohga qadar tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olingan mol-mulki har birining o'z mulki hisoblanadi. Shu sababli, siz avtomashinadan ulush ololmaysiz. 2 xonali kvartira esa er-xotinning umumiy mulki hisoblanib, undan ulush olishingiz mumkin.



YAROQSIZ MUZLATKICHNI KIM TA'MIRLAB BERADI?

– Do'kondan muzlatkich sotib olgandik. Lekin u negadir yaxshi ishlamadi. Qonunchiligimizda yaroqsiz tovarni sotganga jazo bormi?

– Tovarda kafolat muddati davomida topilgan nuqsonlarni sotuvchi iste'molchi tegishli talab qo'ygandan paytdan e'tiboran 20 kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa, 10 kun ichida bepul bartaraf etishi lozim. Shu tartib-qoidaga asosan sotuvchidan yaroqsiz tovarni tuzatib berishni talab qilishingiz mumkin. Tovar yaroqsizligi aniqlanganda sotuvchi uni xuddi shunday boshqa tovarga almashtirib berishga majbur.

SO'RAGAN EDINGIZ

OTA-ONASI TASHLAB KETGAN BOLA QANDAY ASRAB OLINADI?



– TOPIB olingan bolaning hujjatlari qanday rasmiylashtiriladi?

– Qarovsiz qoldirilgan yoki tashlab ketilgan bolalarni boqib olgan yoki boqib olmoqchi bo'lgan oilalarni "Bunday bolalarning hujjatlari qanday rasmiylashtiriladi?" degan savol qiziqtirishi tabiiy.

Topib olingan (tashlab ketilgan) bolaning tug'ilganligini qayd etish ichki ishlar, vasiylik va homiylik organlari, bola joylashgan muassasa ma'muriyati yoki tibbiyot muassasasining arizasiga binoan amalga oshiriladi. Bolani topib olgan shaxs yigirma to'rt soat mobaynida ushbu tumandagi ichki ishlar organiga yoki vasiylik va homiylik organiga xabar berishi kerak.

Topib olingan bolaning tug'ilganligini qayd etishda quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

- ☒ ichki ishlar organi yoki vasiylik va homiylik organining bolaning topib olingan vaqti, joyi va topib olingan paytdagi holati to'g'risidagi dalolatnomasi;
- ☒ tibbiy muassasaning topib olingan bolaning yoshi, jinsi, vazni va bo'yi haqidagi ma'lumotnomasi;
- ☒ topib olingan bolaning tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvi-ga ota-onasining familiyasi, ismi va millati to'g'risidagi ma'lumotlar Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrda "Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining 28-bandida sanab o'tilgan organlarning ko'rsatmalari asosida kiritiladi. Bunday holda bolaning va bolaning ota-onasi sifatida ko'rsatilgan shaxslarning familiyasi bir xilda yoziladi.

"Belgilar uchun" ustuniga "bola topilgan" yoki "tashlab ketilgan" deb yoziladi va ota-onasi haqidagi ma'lumotlar kimning ko'rsatmasiga asosan yozilganligi ko'rsatiladi.

Savolga G'ijduvon tuman
FHDI bo'limi katta inspektori
Zulfizar SAYFIYEVA javob berdi



SENATORLAR SONI QISQARMOQDA

YANGI tahrirda qabul qilinishi ko'zda tutilayotgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Oliy Majlis palatalari faoliyatidagi funksiyalarning takrorlanishiga barham berilmoqda. Xususan, Bosh vazir va hukumat a'zolarining hisobotlarini eshitish, davlat budjeti ijrosini nazorat qilish, hisob palatasi raisining hisobotini eshitish kabi vakolatlar Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari sifatida belgilanyapti.

Quyi palata Prezident taklifiga binoan Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi (endi bu masala ikkala palataning birligidagi yurisdiksiyasida bo'ladi).

O'z navbatida, Senat Prezident taqdimiga binoan korrupsiya hamda monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini saylash, bosh prokuror, hisob palatasi raisi lavozimlariga nomzodlarni tasdiqlash, elchilarning hisobotlarini eshitish vakolatiga ega bo'ladi, shuningdek, nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning nazorat vakolatlarini kuchayтира oladi. Davlat xavfsizlik xizmati raisi lavozimiga Prezident tomonidan tavsiya etilgan nomzod bo'yicha Prezident va Senat o'rtasida maslahatlashuv o'tkazish tartibi belgilanmoqda.



Bundan tashqari, Sudyalari oliy kengashining barcha a'zolarini Senat tomonidan saylash tizimini joriy etish ko'zda tutilgan. Kengashlarning qonun hujjatlari normalariga mos kelmagan taqdirda, Senat qarorlarini bekor qilish ham Konstitutsiyaga kiritilgan.

Senat a'zolari sonini 100 nafardan 65 nafarga qisqartirish rejalashtirilgan, shu sababli, 2024-yilda navbatdagi chaqiriqda har bir viloyatdan 4 nafardan (hozirgi 6 ta o'rniga) senator saylanadi. Prezident tayinlashi mumkin bo'lgan senatorlar soni 16 tadan 9 taga qisqaradi.

Qonunchilik palatasi va Senat deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismining ko'pchilik ovozi bilan o'z-o'zini tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimiz muallifligida ishlab chiqilgan va referendumga qo'yilayotgan Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi mamlakatimiz taraqqiyotiga, fuqarolarimiz turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Rustam ABDULLAYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
o'qituvchisi

Aniqlanishicha, Andijon viloyat davlat soliq boshqarmasi tomonidan 2022-yil 22-sentabrda tekshiruv natijalari yuzasidan qaror qabul qilingan. Bunga 2022-yil 5-sentabrda DSB xodimi S. Husanov tomonidan tuzilgan soliq tekshiruvi dalolatnomasi asos bo'lgan. Mazkur soliq tekshiruvi prokuratura organining "Hujjatli taftish tayinlash haqida"gi qaroriga muvofiq viloyat davlat soliq boshqarmasining 2022-yil 8-avgustdagi buyrug'iga asosan o'tkazilgan.

Tekshiruv jarayonida 2022-yil 5-sentabrda davlat soliq boshqarmasi tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirilib, mazkur dalolatnomada MChJga Xo'jaobod tuman hokimining 2019-yil 3-maydagi qarori bilan "M.Madiyarov" massivi hududidagi qum-shag'al aralashmasi uchastkasi yer maydonida (kar'er)dan 2021-yil 1-maydan 2021-yil 31-dekabrqa qadar 66.894,8 m.kub qum va shag'al aralashmasi tegishli hujjatlarsiz o'zboshimchalik bilan qazib olinishi natijasida davlat yoki jamoat manfaatlariga 631.779,2 ming so'm zarar yetkazilgan deb MChJ rahbari M. Raimovga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Shuningdek, 631.779,2 ming so'mlik zarar Soliq kodeksining 223-moddasiga asosan aniqlangan kamomad deb topilib, 20 foiz miqdorda ya'ni, 109,874,6 ming so'm moliyaviy jarima hisoblanishini nazarda tutadi, deya dalolatnoma ham tuzilgan.

Soliq tekshiruvi materiallari viloyat davlat soliq boshqarmasi tomonidan



Soliq organining qarori BEKOR QILINDI

Andijon viloyat adliya boshqarmasi tomonidan "Story-Invest Universal" MChJ rahbari M. Raimovning soliq organi xodimlarining MChJga nisbatan asossiz ravishda soliq hisoblaganidan norozi bo'lib yo'llagan murojaati o'rganib chiqildi.

ko'rib chiqilib, tekshiruv natijalari bo'yicha qaror qabul qilingan.

Mazkur qarorda Soliq kodeksining 452-moddasiga asosan 66.894,8 m.kub qum-shag'al aralashmasini tegishli hujjatlar asosida qazib olmagani uchun 631.779,2 ming so'm zarar summasini 7500 so'mga ko'paytirib, 501 million 711 ming so'm yer qaridan foydalanganlik uchun soliq, QQSga 82 million 405 ming 980 so'm hamda 109 million 874 ming 600 so'm jarima undirish ko'rsatilgan.

Ushbu qarorni qabul qilishda Soliq kodeksida ko'rsatib o'tilgan talablar buzilgan. Jumladan, Soliq kodeksining 212-moddasi oltinchi qismiga ko'ra "Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor, deb hisoblanmaydi".

Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor emasligini isbotlashi shart emasligi ko'rsatilgan.

Tergov organi tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik deb topilgan ayblov xulosasi jinoyat ishlari bo'yicha Xo'ja-

bod tuman sudi tomonidan ko'rib chiqildi. Jamiyat rahbari M. Raimovga nisbatan qo'yilgan ayblovlar ortiqcha kvalifikatsiya qilingan deb topilib, qo'yilgan ayblovni bekor qilish haqida hukm chiqarildi.

Bundan tashqari, 66.894,8 m.kub qum va shag'al kovlanishi natijasida davlat va jamoat manfaatlariga 378 million 900 ming so'mlik zarar jamiyat rahbari tomonidan tergov davomida to'langani uchun M. Raimovga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari, ya'ni 13 million 500 ming so'm jarima jazosi tayinlangan.

"Story-Invest Universal" MChJ rahbari bo'lib ishlagan M. Raimovga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida o'tkazilgan soliq tekshiruvida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlik deb ta'riflangan holatlar o'z isbotini topmagan.

Shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha Xo'jaobod tuman sudining xukmi bilan jamiyat rahbari tomonidan yetkazilgan zarar to'liq qoplanganligi ko'rsatilgan bo'lsa-da, davlat soliq boshqarmasi tomonidan Soliq kodeksida nazarda tutilmagan tartibda ya'ni, zarar summasini hech qanday asossiz soliqqa tortish bazasi deb topgan.

Mazkur holatlar yuzasidan adliya boshqarmasi tomonidan tadbirkor manfaatini ko'zlab Andijon tumanlararo ma'muriy sudiga shikoyat kiritilishi natijasida soliq organining qarori bekor qilindi.

Alisher HASANOV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi



SIRDARYO

FARROSHNING HUQUQI TIKLANDI



"YANGIYER" muruvvat nogiron ayollar uchun internat uyida oshxona farroshi bo'lib ishlayotgan N. Umaraliyeva Yangiyer shahar adliya bo'limiga ishidagi muammo yuzasidan shikoyat qilgan. O'rganish jarayonida N. Umaraliyeva 2019-yil 12-yanvardagi buyruq asosida 0,75 stavka xona farroshi vazifasidan tug'uruq ta'tiliga, keyinchalik esa bola parvarishi ta'tiliga chiqqani, 2022-yil noyabr oyida esa avvalgi joyiga emas, boshqa vazifaga qaytganligi aniqlandi.

Shahar adliya bo'limi tomonidan "Yangiyer" muruvvat nogiron ayollar uchun internat uyiga berilgan xatning javobiga xodimning o'z ishiga qaytmagani va boshqa vazifaga 0,50 stavka ish berilgani ma'lum bo'ldi. Bu esa Mehnat kodeksining talablari buzilganidan, muassasa rahbariyati va kadrlar bo'limi xodimlari qonunbuzilish holatiga yo'l qo'ygani dalolat beradi.

Ushbu holat yuzasidan shahar adliya bo'limi tomonidan internat uyi rahbari nomiga qonunbuzilishni bartaraf etish to'g'risida taqdimnoma kiritildi.

Taqdimnomaga asosan N. Umaraliyeva eski vazifasiga tiklandi.

Qonunbuzilish holatiga yo'l qo'ygani xodim U. Rasulovaga "hayfsan" intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.

Laziz XUDOYQULOV,
Yangiyer shahar adliya bo'limi
boshlig'i



QORAQALPOG'ISTON

PENSIYAGA SUD ORQALI CHIQDI



BERUNIY tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro A.S.ning yoshga doir pensiyaga chiqishda ish stajlari hisobga olinmaganligi oqibatida pensiya tayinlash rad qilinganidan norozi bo'lib qilgan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida fuqaro A.S.ning hisobga olingan ish staji 6 yil 9 oy 12 kunni tashkil qilishi ma'lum bo'ldi. Fuqaroning mehnat daftarchasida qayd qilingan fermer xo'jaliklaridagi mehnat staji esa "Yagona mehnat milliy tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan foydalangan holda, elektron ma'lumotlar almashinuvida o'z tasdig'ini topmagani uchun Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Beruniy tuman bo'limi tomonidan mehnat stajiga qo'shib hisoblanmagani aniqlandi.

Mehnat kodeksining 81-moddasida mehnat daftarchasi xodimning mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjatdir, deb belgilangan.

Shuningdek, kodeksning 283-moddasida ish beruvchilarning davlat ijtimoiy sug'urtasi uchun badal to'lamaganliklari sug'urta qilingan xodimni davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan ta'minlash huquqidan mahrum qilmasligi kafolatlanishi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarga asosan, bo'lim tomonidan ma'muriy ishlar bo'yicha Nukus tumanlararo sudiga ariza kiritilib, sudning hal qiluv qarori bilan Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Beruniy tuman bo'limiga fuqaro A.S.ning hisobga olinmagan mehnat stajini inobatga olish va pensiya tayinlash yuzasidan majburiyat yuklatildi.

Vahob TURANIYAZOV,
Beruniy tuman adliya bo'limi yetakchi
maslahatchisi



TOSHKENT

HOKIMLIK DAN FUQARONING HAQQI UNDIRILDI



QIBRAY tuman hokimligi tomonidan kompensatsiya puli to'lanmayotganidan norozi bo'lgan fuqaro S.I.ning murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.

Aniqlanishicha, Qibray tuman hokimining 2019-yil 11-apreldagi 752-sonli qaroriga asosan fuqaro S.I.ga tegishli bo'lgan dala hovli buzilishga tushgan. Biroq, hokimlik tomonidan 374 million 786 ming 828 so'm miqdordagi yetkazilgan moddiy zarar qoplanmagan.

Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 29-maydagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yilishi munosabati bilan fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkaziladigan zararlarni qoplash to'g'risida"gi nizomiy va yuridik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta'minlash hamda yer uchastkalarini olib qo'yish va kompensatsiya berish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, bino-inshootlari va boshqa qurilmalari turgan yer maydonlari davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar natura va kompensatsiya tarzida qoplanishi kerakligi belgilangan.

Fuqaroning murojaati o'rganilib, tuman hokimligiga yuqoridagi qonunbuzilishni bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma kiritildi. Taqdimnomaga asosan Qibray tuman hokimligi tomonidan 374 million 786 ming 828 so'm kompensatsiya puli to'lab berildi.

Jahongir ABDUSATTOROV,
Qibray tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi



TOSHKENT



M. Abidovning Chilonzor tuman adliya bo'limiga qilgan murojaatida Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Chilonzor tuman bo'limi tomonidan 1977-yildan 2004-yilgacha bo'lgan yillardagi ayrim davrlari yoshga doir pensiya hisoblashda inobatga olinmayotganidan norozi bo'lganini bildirgan.



FUQARONING ISH STAJI INOBATGA OLINMAGAN

Ma'lum bo'lishicha, pensiya jamg'armasi Chilonzor tuman bo'limining 2015-yil 25-maydagi qarorida fuqaro M. Abidovning yuqorida ko'rsatilgan yillarda turli tashkilot va korxonalarda ishlaganligini tasdiqlovchi hujjatlar va arxiv ma'lumotnomalari taqdim etilmagani sababli ishlagan davrlari umumiy mehnat stajini hisoblashda inobatga olinmagani qayd etilgan. Ammo M. Abidovning pensiya jamg'armasi tomonidan hisobga olinmagan barcha ish staji davrlari mehnat daftarchasida qayd etilgan.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 81-moddasida hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomning 56-bandida mehnat daftarchasi (elektron mehnat daftarchasi) ish stajini tasdiqlay-

digan asosiy hujjat hisoblanishi belgilab qo'yilgan.


O'rganish natijalariga ko'ra, fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklash maqsadida tuman adliya bo'limi tomonidan Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga da'vo ariza kiritilib, da'vo qanoatlanirildi. Sud pensiya jamg'armasi Chilonzor tuman bo'limining 2015-yil 25-maydagi M. Abidovga tegishli qarorining mehnat stajini hisoblamaslikka oid qismini haqiqiy emas deb topdi va mazkur sud qarori bilan pensiya jamg'armasi tuman bo'limi zimmasiga M. Abidovga yoshga doir pensiya tayinlashda hisobga olinmagan ayrim tashkilot va mehnat jamoalarida ishlagan davrlarini umumiy mehnat stajiga qo'shib hisoblashda inobatga olish majburiyati yuklatildi.

Doston OCHILOV,
Chilonzor tuman adliya bo'limi bosh
maslahatchisi

6 KO'ZGU

YANGILANAYOTGAN Konstitutsiya yangi davr odimlari, taraqqiyot asri shiddati, demokratik islohotlar izchilligi va eng muhimi, inson huquq va erkinliklari muhofazasining yanada ustuvorligini o'zida mujassam etgan.

Ma'lumki, so'nggi olti yil mobaynida aynan huquq va erkinliklarimiz muhofazasi, iqtisodiyot, ijtimoiy sohalar, odil sudlov, so'z va e'tiqod erkinligi borasida dadil qadamlar tashlandi mamlakatimizda. Yillar davomida qo'shni respublikalar bilan o'ramizda paydo bo'lgan "muzlar eridi". Bunday yutuqlarimizdan nafaqat biz – bugungi avlodlar, balki kelajagimiz egalari ham emin-erkin foydalanishi uchun, ularni albatta Konstitutsiyada muhrlab qo'yishimiz zarur edi.



XALQCHILLIK SARI

Bugungi kunda jamoatchiligimiz tom ma'noda uyg'on-di. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya matni olimlar yoki mutaxassislar tomonidan xonalarda o'tirib yozilmadi. Balki, avval xalqimizning fikri, takliflari 2 bosqichda o'rganilib, so'ng Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Avvallari Konstitutsiyani qabul qilishda dastlab loyiha ishlab chiqilib, keyin xalq muhokamasiga qo'yilgan bo'lsa, bu gal Konstitutsiya loyihasini shakllantirish uchun hamyurtlarimiz 60 mingdan ziyod taklif berdi. Ushbu takliflarning har to'rttasidan bittasi loyihadan o'rin oldi. Keyin esa Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali loyiha bilan 5 million aholi tanishib chiqib, 150 mingdan ortiq takliflarini bildirdi. Shu bilan birga, mehnat jamoalari, oliygohlar, mahalla faollari va ziyolilar bilan bo'lib o'tgan muhokamalarda ham yana 10 mingta qo'shimcha taklif kelib tushdi. Ana shu jarayonlar asosida Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi.

Yangi Konstitutsiyaning 1-moddasida "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" deb belgilangani insonga e'tibor hamda g'amxo'rlik davlat va jamiyatning eng asosiy burchi sifatida yanada mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Qolaversa, tibbiyot, ta'lim, umuman, ijtimoiy sohalarining barcha jabhasi, iqtisodiy, siyosiy huquq va erkinliklar bilan bog'liq mezonlarga ham to'xtalish mumkin.

Muhim konstitutsiyaviy kafolatlardan yana biri – davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratishi alohida qayd etilayotganidir. Ushbu normaning kiritilishi jamiyatimizda oila mustahkamligi va muqaddasligi kafolati bo'lib xizmat qiladi.

E'tirof etish kerak, yangi Konstitutsiya loyihasida O'zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilanmoqda. Jumladan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi sifatida belgilanar ekan, unda inson huquqlariga oid normalar 3 baravardan ziyodga ortganini ta'kidlash o'rinli. Shu ma'noda aytganda, inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida belgilanmoqdaki, bu davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ladi.

O'Imasbek TOSHPOLATOV,

fuqarolik ishlari bo'yicha Namangan tumanlararo sud sudyas yordamchisi

Yurtimizda kontrafakt mahsulotlar sonini kamaytirish va ularni ishlab chiqaruvchilarga qarshi kurashish maqsadida yirik supermarketlar tarmog'i bilan kontrafakt mahsulotlardan xoli bo'lgan "Kontrafaktsiz hudud" tashkil etish bo'yicha memorandumlar imzolangan. Mazkur memorandum doirasida supermarketlar rastalariga kontrafakt mahsulotlar qo'yilishi oldi olinadi. Agar shunday holat kuzatilsa, bu haqda Adliya vazirligi mas'ul xodimlari ogohlantiriladi. Iste'molchilar esa, kontrafakt mahsulotni aniqlaganda @ima_monitoring_bot telegram kanali orqali xabar berishi mumkin.

Bundan tashqari, mart oyida o'tkazilgan oylik davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan "Intelktual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi va himoyasi" mavzusida seminar-treninglar, "Biz kontrafaktga qarshimiz!" shiori ostida respublikamiz bo'ylab soxta mahsulotlarga qarshi kurash yuzasidan ko'plab targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Kontrafakt mahsulotdan nafaqat xaridor balki tadbirkor ham zarar ko'radi. Sababi iste'molchi orasida mashhur bo'lgan mahsulot ommabopligidan foydalanib, nohalol tadbirkor tomonidan xuddi shunga o'xshash tarzda mahsulot tayyorlanadi. Natijada xaridor o'zi tanigan mahsulotni sotib oldim, deb aldanadi, asl tadbirkor esa mahsulot sotuvi kamayib, kasodga uchrashi mumkin. Shu jihatdan kontrafakt mahsulotga qarshi kurash ham iste'molchi, ham tadbirkor huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Shunday holatga uchrasmilik uchun, vazirlikning mas'ul xodimlari tomonidan respublikamizda aniqlangan kontrafakt mahsulotlar katalogi yaratilgan bo'lib, ular orqali xaridorlar kontrafakt mahsulotlar haqida ma'lumot olib, ularni xarid qilishdan ogoh etiladi. Bu kabi kataloglar respublikamiz bo'ylab bozorlar, yirik savdo majmualari, ko'chma savdo nuqtalari, dorixonalar hamda alkogol mahsulotlar savdosiga ixtisoslashgan do'konlarda 3 xil turdagi (kontrafakt xo'jalik mahsulotlar, kontrafakt dori va alkogol mahsulotlari) kataloglar 1 ming 500 dan ortiq nusxada tarqatilib, keng jamoatchilikka yetkazildi.

Ma'lumki, kontrafakt mahsulotlarning chegara sarhadlaridan kirib kelish ehtimollari ham uchraydi. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi bilan hamkorlikda bojxona postlarida kontrafakt mahsulotlar tushunchasi, kontrafakt va asl mahsulotni o'zaro farqlashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, shuningdek, Prezidentning 2022-yil 26-apreldagi qaroriga asosan 2022-yilning 1-sentabridan boshlab tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlarida bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonida intellektual mulk huquqlari buzilganligi alomati mavjud bo'lgan tovarlar aniqlanganda, bojxona organlari tomonidan huquq egasining "Yagona darcha" bojxona axborot tizimidagi shaxsiy kabinetiga xabar yuborish amaliyoti joriy etilganligi yuzasidan tushuntirishlar berildi.

PREZIDENTIMIZNING 2021-yil 28-yanvardagi "Intelktual mulk ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Adliya vazirligi tomonidan mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda respublika bo'ylab kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasiga qarshi kurashish hamda aholini bunday mahsulotlardan ogoh etishni nazarda tutuvchi "Kontrafaktsiz oy" oyligi o'tkazish ko'zda tutilgan.



KONTRAFAKT mahsulotdan ham tadbirkor, ham xaridor ZARAR KO'RADI

Hozirda onlayn xaridlar ommalashganini e'tiborga olsak, bu jarayondan internet do'konlar ham chetda qolmaydi. Shunday ekan, kontrafakt mahsulotlar sotuvi javobgarlik belgilangani yuzasidan uzum.uz, olcha.uz, prom.uz, asaxiy.uz, apteka.uz, arzonapteka.uz va boshqa tadbirkorlik sub'ektlari vakillari ishtirokida "Kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasining huquqiy oqibatlari" mavzusida seminar-trening tashkil etilib, tadbir davomida kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasi va uning natijasida aholi salomatligi va tadbirkorlik subyektlariga yetkazilayotgan zarar to'g'risida fikr-mulohaza yuritildi.


Xulosa o'rinda aytganda, oylik doirasida iste'molchilar kontrafakt mahsulotni qanday farqlash mumkinligi, uni xarid qilish orqali iqtisodiyotga hamda ishlab chiqaruvchiga zarar yetkazish mumkinligini anglab yetishmoqda. Tadbirkorlar esa o'z tovar belgisini himoya qilish kerakligi va o'zganing tovar belgisi ya'ni brendidan noqonuniy foydalanganlikda qonuniy javobgarlik mavjudligi haqidagi normalardan xabardor bo'ldi.

Sherzod ABDULLAYEV,

Adliya vazirligi mas'ul xodimi

ULUG' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan purhikmat so'zlari bugun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga hamohangdir.

TABAQALASHTIRILGAN TA'LIM samara berishi mumkin



Darhaqiqat, sifatli ta'limning inson kamolotidagi o'rni beqiyosdir. Tarbiyasizlik esa salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Agar rivojlangan mamlakatlar siyosiy tizimiga e'tibor berilsa, ta'limga, sog'liqni saqlash tizimiga, qonun ustuvorligiga alohida e'tibor berilganini ko'rishimiz mumkin. Joriy yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi ham O'zbekistonning taraqqiyot yo'lidagi muhim qadami hisoblanadi. Agar sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali takomillashtirilsa, amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi yanada ijobiy bo'lishi shubhasiz.

Ayni paytda umumta'lim muassalarida, xususan, tayanch o'rta ta'limda (5-sinfdan 9-sinfgacha) ham bir sinfda 35 nafargacha o'quvchi majburiy ta'lim oladi. Ularning orasida bilim olishga ishtiyoqi borlar ham, ishtiyoqi yo'qlar ham mavjud. Oqibatda o'qituvchiga berilgan 45 daqiqa vaqtning aksariyat qismi o'qishga qiziqishi bo'lmagan o'quvchini tartibga chaqirish bilan o'tadi. Bunda, avvalo o'quvchilarning vaqti isrof bo'ladi. Qolaversa, arziyas asab-buzarlik o'qituvchining sog'lig'iga ta'sir

qiladi. Shuningdek, o'qishga ishtiyoqi bor bo'lgan o'quvchilarning vaqti o'g'irlanib, darsdagi mavzuni to'laqonli o'zlashtirish imkonini yo'qoladi. Binobarin, iqtidorli o'quvchilarni alohida, bilim olishga qiziqishi bo'lmaganlarni esa boshqa sinfda, ya'ni qiziqishi, iqtidori bo'yicha tabaqalashtirib o'qitish maqsadga muvofiqdir.

Sir emaski, respublikamizdagi xususiy maktablarda ham o'quvchilar tabaqalashgan holda o'qimoqda. Chunki tarixiy va zamonaviy tajribaga nazar tashlasak, jamiyatning, insonlarning, hodisalarning tabaqalanishi taraqqiyotga turtki bo'lib xizmat qilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Jamiyatning tabaqalanishi bir necha omillarning qo'llanilishi bilan sodir bo'lgan. Xususan, daromad, boylkda, hokimiyatda, sportda va obro'da, bilimda, hunarda va hokazolarda tabaqalanish ko'zga tashlanadi. Biznesda (quyi, o'rta, yuqori) biznes darajalari, ta'lim va boshqa sohalarida mutaxassis, 2-toifa, 1-toifa, oliy toifa kabi tabaqalanish va hokazo mavjud. Tabaqalashtirish holatlariga yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Agar maktablarda bilim berish tabaqalashtirish orqali amalga oshirilsa, yuksak bilim darajasiga yetaklovchi sog'lom raqobatni yo'lga qo'ygan bo'lamiz. Natijada o'qituvchilar ham o'quvchilar ham o'z ustilarida yanada ko'proq ishlay boshlaydi. O'quvchilar ham iqtidorli tengdoshlari qatoridan joy olishga intiladi. Shu bois O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 9-moddasi beshinchi qismi quyidagi mazmundagi norma bilan to'ldirilishini taklif qilamiz: "Tayanch o'rta ta'limga (5-sinf boshlab) qabul qilishda barcha o'quvchilar bilim darajasi yuzasidan tabaqalashtirilgan sinflarga qabul qilinishi majburiydir. Bunda maktab ishchi komissiyasi 5-sinf boshlab maktabning tabaqalashtirilgan sinflarini tashkil qiladi. Ushbu sinflarga o'quvchilarni odilona, oshkora va o'quvchilarning ota-onalari ishtirokida 2 bosqichli (1-test, 2-suhbat) tanlov asosida qabul qiladi".

Albatta, bu jarayon ota-onalarga ham farzandlarini tabaqalashtirilgan sinflarga qabul qildirishda turtki (motivatsiya) bo'lib hisoblanib, ular farzandlarini ushbu sinflarda o'qitish uchun astoydil sog'lom raqobat yuzasidan harakatga kirishadi. Ota-onalarning sifatli ta'limni yo'lga qo'ygan hukumatga ham, maktab muassasasiga ham ishonchi ortadi. O'sha sinflarga dars berayotgan o'qituvchilar ham o'z ustida ko'proq ishlab, iqtidorli o'quvchilarning bilimiga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirish uchun yanada ko'proq izlanadi. Ham o'qituvchilar, ham o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat yuzaga keladi. Eng muhimi, maktablarmizdan har tomonlama bilimli, malakali, mamlakatning nurli kelajagi uchun munosib bo'lgan, xalqaro standartlarga javob bera oladigan bitiruvchilar chiqishga erishamiz.

Baxtiyor QO'SHBOQOV,
Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



- Yaqinda ish yuzasidan xorijga ko'chib ketamiz. Oilaviy ketmoqchimiz. Farzandlarimiz maktabda o'qishadi. O'quvchining ota-onasi xorijiy davlatga ishlash uchun ketayotgan bo'lsa, farzandlarini ham olib ketmoqchi bo'lsa, farzandi ta'lim olayotgan muassasadan qay tartibda chiqariladi?

O'quvchining o'qishini xorijga ko'chirish tartibi qanday?

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining 2015-yil 2-iyundagi 13-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'quvchilarni sinfdan sinfga va bir umumiy o'rta ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 22-bandiga asosan ota-onalar o'qish, ishlash, uzoq muddatli davolanish yoki boshqa maqsadlarda doimiy yoki vaqtincha yashash uchun xorijiy davlatga ketayotgan bo'lsa, farzandini doimiy yoki vaqtincha yashash uchun ketayotgan davlatdagi ta'lim muassasasiga o'tkazish huquqiga egaligi belgilangan.

Ushbu Nizomning 23-bandiga ko'ra, ota-onalar farzandini xorijiy davlatdagi ta'lim muassasasiga o'tkazish uchun uning sabablarini ko'rsatgan holda maktab direktori nomiga ariza bilan murojaat etadi. Arizaga Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyasining voyaga yetmaganini maktab o'quvchilari safidan chiqarish uchun roziligi aks etgan qaroridan ko'chirma ilova qilinadi.

Nizomning 24-bandiga asosan berilgan ariza maktab direktori tomonidan bir ish kuni ichida ko'rib chiqilib, o'quvchini maktab o'quvchilari safidan chiqarish to'g'risida buyruq qabul qilinadi. Maktab direktori mazkur buyruq bilan ota-onalarni tanishtirganligi to'g'risida imzo qo'ydirib, ularga mazkur Nizomning 16-bandida belgilangan hujjatlarni taqdim etadi va hujjatlarni olganligi to'g'risida tilxat oladi.

Ota-onalarning hujjatlarni olganligi haqidagi tilxati o'quvchining maktabda saqlanadigan shaxsiy hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi.

O'quvchilar safidan chiqarish to'g'risidagi buyruq qabul qilingach, yuqoridagi Nizomning 25-bandiga ko'ra, uch kun ichida sinf jurnali va o'quvchilar harakati daftariga tegishli yozuv kiritiladi.

Yuqoridagi Nizomning 26-bandiga rioya qilgan holda maktab direktori tomonidan xorijiy davlatdagi ta'lim muassasasiga o'tkazilayotganligi sababli o'quvchilar safidan chiqarilgan voyaga yetmaganlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi hamda har o'quv yili choraklari oxirida tegishli tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limiga, tuman (shahar) ichki ishlar bo'limiga (boshqarmasiga) va Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyasiga taqdim etiladi.

Sherzod TOLBOV,

Marg'ilon shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

E'OLONLAR

"Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 152-moddasi va Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 31-martdagi 3-son yig'ilish qaroriga asosan G'uzor tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius, Xudayberdiyev Asamidin Abduraxmanovichga (litsenziya KS 0012, 2020-yil 23-aprel) viloyati adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini 1 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 3-aprel kunidan 2023-yilning 3-may kuniga qadar hamda Nishon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zaripov Akmal Anvarovichga (litsenziya KS 0038, 2020-yil 27-aprel) viloyati adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini 1 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 3-aprel kunidan 2023-yilning 3-may kuniga qadar to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Namangan viloyati adliya boshqarmasi tomonidan "Huquq himoyasida" advokatlik firmasi advokati Yusupov Anvar Solijonovichga Namangan viloyati adliya boshqarmasi tomonidan 10.12.2020-yilda berilgan NA 0002000-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda

uning advokatlik maqomi "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasiga asosan tugatildi.

"Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasi va Qashqadaryo viloyati sudi Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati apellyatsiya instansiyasining 2023-yil 6-martdagi ajrimi hamda Jinoyat ishlari bo'yicha Muborak tuman sudining 2022-yil 28-iyuldagi hukmiga asosan Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi tomonidan 2021-yil 15-yanvarda Qarshi tuman "MADAD HUQUQU SHONCH" advokatlik byurosi advokati Buxarov Sherzod Zulfiqorovichga berilgan KS 000227-reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi tugatildi.

Namangan viloyati adliya boshqarmasi tomonidan "Mir zakona" advokatlik byurosi advokati Mamatov Muzaffar Nuriddinxon o'g'liga Namangan viloyati adliya boshqarmasi tomonidan 01.07.2022-yilda berilgan NA 000265-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasiga asosan tugatildi.

8 TRENING

Davomi. Boshlanishi 1-betda

Ikki kunlik interaktiv mashg'ulotlar bilan o'tgan treningda Adliya vazirligi mas'ul xodimlari, malakali trenerlar, huquqshunoslar hamda soha ekspertlari ayollar muammolarini yoritishda professionallik, etika me'yorlari, zo'ravonlik turlarini farqlash, O'zbekistonning gender tengligi bo'yicha davlat siyosati va konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, media olamida ayollarning kasblari haqida shakllanib qolgan stereotiplar, ayollarga xos kasblarni ommaviy axborot vositalarida targ'ib qilish borasidagi yutuq va kamchiliklar, gender tenglik tushunchasini aholiga to'g'ri tushuntirishda OAVning roli, mediada ayollar qiyofasi qanday va aslida qanday bo'lishi kerak, huquqiy manbalar bilan ishlash va faktcheking ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalarga e'tibor qaratildi.

Trainerlar tomonidan mediada ayol va erkaklarning bor imkoniyatlarini ochib beruvchi qiyofalarini yaratish, stereotiplarga bog'lanmagan holda ayollarning turli xil kasblarini yoritish, har qanday zo'ravonlikni qoralovchi film, jurnalistik materiallar tayyorlash bo'yicha tavsiyalar berildi.

Trainingda "Mintaqaviy muloqot" xalqaro NNTning O'zbekistondagi filiali rahbari Petra Goryup, Adliya vazirligi boshqarma boshliqlari Furqat Tojiyev, O'tkir Nazarov, Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi Kamola Aliyeva, media ekspertlar Nargis Qosimova va Nodira Alimova-lar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ishtirokchilar uchun alohida ahamiyat kasb etdi.

– Avvalo, bunday tadbirni o'tkazish tashabbusini bildirgan Adliya vazirligiga o'z minnatdorligimni bildiraman, – dedi suhbat chog'ida "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat notijorat tashkilotining O'zbekistondagi filiali rahbari Petra Goryup. Ushbu treningga ommaviy axborot vositalari xodimlari, bloggerlar, huquqshunoslarning taklif etilganligi quvonarli.

Hozirda O'zbekiston qonunchiligida muhim islohotlar o'tkazilmoqda. Va bu kabi treninglar aynan jurnalistlar uchun tashkil etilayotganligi esa kelgusida ular tomonidan qonunchilik hujjatlari mohiyati to'g'ri va ishonchli yetkazilishini ta'minlaydi. Chunki aholiga huquqiy islohotlarni, yangi konsepsiyalarni tushuntirishda jurnalistlarning o'rni muhim. Shuning uchun ham, ular avvalo bu islohotlarni o'zlari to'g'ri tushunishlari kerak.

Gender tenglik mavzusi nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda muhim hisoblanadi. Jamiyat hayotini yaxshilashda, ta'lim, fan, madaniyat va boshqa sohalarida genderning ikki tarafi ham teng va faol ishtirok etishi kerak, deb hisoblayman.

MUHM VA DOLZARB SESSIYA

Jurnalistik materiallar tayyorlashda huquqiy manbalar bilan ishlash bo'yicha alohida sessiya bo'lib o'tdi. Unda jurnalistlar uchun foydali bo'lgan huquqiy manbalar Lex.uz, advice.uz, gender-madad, yurixmat.uz, Kurslar huquqiy portali haqida ma'lumot berildi.

Ta'kidlanganidek, "Gender-madad" platformasida "Ayollar huquqiy himoyasi", "Ayollarga imtiyozlar", "Oilaviy munosabatlar", "Oilaviy zo'ravonlik" va boshqa bo'limlarda jami 150 dan ortiq huquqiy axborot, ma'lumot va kontentlar joylashtirilgan. Platformada onlayn-maslahatchi xizmati (onlayn chat) ham mavjud bo'lib, xotin-qizlar ushbu xizmat orqali gender masalalari bo'yicha o'zlarini qiziqitgan savollarga real vaqt rejimida malakali mutaxassislardan javob olishlari mumkin. Hozirgi kunga kelib "Gender-madad" huquqiy maslahat platformasidan 15 ming nafarga yaqin fuqarolar foydalangan.

STEREOTIPLAR...

Tan olish kerak, keyingi paytlarda mafkuramizga kitob emas, internet tarmoqlari va saviyasiz seriallar ko'proq ta'sir o'tkazmoqda. Oddiygina misol: "Xiyonat", "Xiyonat ko'chasi", "Sotilgan nomus", "Mardikor", "Shallaqi", "Firibgar", "Fitna" deb nomlangan millatni ruhlan-tiruvchi emas, orzu-umidlarni sindiruvchi, ko'rgan odamni g'azablantiruvchi saviyasiz filmlarni tomosha qilayotgan



Ayollar

muammolarini yoritishda

huquqiy, professional va

axloqiy me'yorlar

zamondoshlarimizning saviyasini baland deysih qiyin albatta.

Yoki deyarli barcha seriallarda qaynona-kelin mojarolari, oilaviy janjallar, baqir-chaqirlar aks etganligi va bu bir xil qolipdagi kartinalarni ko'pchilik oilaviy tomosha qilayotgani kishini tashvishga soladi.

Ma'ruza, taqdimot va mulohazalar hamda videokeysalarda stereotip kasblar tahliliga ham urg'u berildi. Masalan, ayollar eng ko'p tanlaydigan o'qituvchilik, hamshiralik kasblari go'yoki urfga aylanib qolgandek.

GENDER TENGLIK HOZIRCHA QOG'OZLARDA...

Yana bir muhim sessiya – "Ommaviy axborot vositalari gender munosabatlarda jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi vosita" mavzusiga bag'ishlandi. Taqdimotda foydalanilgan videoroliklarda bolalar o'z ota-onalari o'rtasidagi vazifalar taqsimoti haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirar ekanlar, har bir oilada ota-onalarning mansabi, mavqei, yoshi, kasbidan qat'i nazar, barcha onalarning zimmasidagi mas'uliyat va vazifalar otalarnikidan ko'ra og'irroqligi ayon bo'ldi. Va buni bolalar ham yurakdan o'tkazgan holda onalariga



mehribonlik bilan xayrixoh bo'lgan holda o'z fikrlarini bildirishgan.

Xuddi shuningdek, trening ishtirokchilari o'rtasidagi bahs-munozaralarda shu narsa ayon bo'ldiki, aynan erkaklarning fikricha, gender tenglik erkaklarning maqomiga go'yoki soya solishi, xotin-qizlarga ortiqcha imtiyoz berilayotgani esa oilada erkak va ayol o'rtasiga sovuqchilik tushirishi mumkin. Demak, gender tenglik hozircha qog'ozlarda...

Shuningdek, jurnalist va bloggerlar uchun "Huquqiy quest" intellektual o'yini ham tashkil etildi. Bir-biridan murakkab va qiziqarli savollar ishtirokchilarning bilimlarini oshirishga xizmat qildi.

Dilfuza ERGASHEVA,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi,
Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" maxsus muxbiri

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri
info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



Bosh
muharir

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Hayotjon Klichev
Sevara O'rino'boeva
Yor'bek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Yor'bek Iskandarov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyoyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3835
Buyurtma – 1048

Topshirish vaqti – 19.00
Topshirildi – 20.00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5